

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TARIX FANINI O'QITISHDA  
ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

*Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o'g'li*

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
va san'at fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi*

*[Akmaljonovakbarjon2001@gmail.com](mailto:Akmaljonovakbarjon2001@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolad "Umumiy o'rta ta'lif maktablarida tarix fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish" mavzusida atroflicha ma'lumotlar berib o'tiladi. Tarix fanini o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, xulosalar chiqarish va boshqa ko'nikmalarni shakllantirishdagi tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tarix, texnologiya, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion texnologiya, interfaol uslublar, elektron taqdimot, multimedia, slaydlar internet vositalari, didaktik kompyuter dasturlari.

**ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ  
ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ В ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ**

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация по теме «Эффективное использование современных технологий в преподавании истории в общеобразовательных школах». В результате использования современных технологий в процессе преподавания истории обсуждается роль учащихся в формировании самостоятельного мышления, правильного анализа данных, формирования выводов и других навыков.

**Ключевые слова:** история, технология, современные технологии, инновационные технологии, интерактивные методы, электронная презентация, мультимедиа, слайды, интернет-инструменты, дидактические компьютерные программы.

**EFFECTIVE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING  
HISTORY IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS**

**Abstract:** This article provides detailed information on the topic "Effective use of modern technologies in teaching history in general secondary schools". As a result of the use of modern technologies in the process of teaching history, the role of students in the formation of independent thinking, correct data analysis, drawing conclusions and other skills is discussed.

**Key words:** history, technology, modern technologies, innovative technology,

interactive methods, electronic presentation, multimedia, slides internet tools, didactic computer programs.

## **KIRISH**

Bugungi kunda mustaqil vatanimiz tarixini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni tariximizni yana ham mukammalroq o'rganish imkonini bermoqda. Tarixda buyuk bobokalonlarimizning qilgan ishlari, ko'rsatgan jasoratlarini yosh avlodga yetkazish orqali ularda vatanparvarlik ruhini ham uyg'otishimiz mumkin. Muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan maktab o'quvchilarini innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarimizni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Tarix faninig asosiy maqsadi- o'quvchilarda tarixiy ma'lumotlar ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Tarix darslarida o'quvchilarda ijodiy fikrlash, o'z fikrini erkin va ravon bayon qila olish, tarixiy ma'lumotlarni ongli o'zlashtirishga o'rgatish, ulug' ajdodalarimiz qoldirgan boy ma'naviyatimiz, biz necha ming yillardan buyon shakllanib kelayotgan milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

## **ASOSIY QISM**

Ta'lim- tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari vaqtlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Shu maqsadda hozirgi kunda dars mashg'ulotlarini olib borishda zamonaviy texnologiyalardan tobora ko'proq foydalilanmoqda. Xususan, o'qituvchi dars mashg'ulotlarini ilg'or innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil eta olsa, o'qituvchi tom ma'noda o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Texnologiya, innovatsion texnologiyalarning bir nechta ta'rifi keltirib o'tamiz: "Texnologiya - ilmiy bilimlarni inson hayotida amaliy maqsadlar yo'lida yo inson muhitini o'zgaritish va manipulyatsiya qilish qilish maqsadida qo'llanilishi. U shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy maqsadlarga erishish uchun (ayniqsa, bunda jarayon qaytalanishi alohida ahamiyatga ega) qo'llanilishi sifatida ta'riflanadi". Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik va o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublardan samarali foydalangan holda, ta'limning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayishi tabiiy hol. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan o'quv mashg'ulotlari o'quvchilar egallayotgn bilimlarini o'lari mustaqil qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari chiqarishga qaratilgan. Yana shuni aytish mumkinki, bugungi kunda tarix darslarida electron slaydlardan ko'rgazmali material sifatida foydalanish ham yaxshi natija beradi. O'quvchilar tarixda bo'lib o'tgan voqeja va hodisalarni slaydlar orqali o'z ko'zlari bilan ko'rishi natijasida voqealar o'quvchilarning xotirasida yaxshi saqlanib qoladi. O'quv materialining

elektron taqdimotida animatsiyalar asosida berilishi nazariy ma'lumotlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshishiga yordam beradi.

Tarix darslarida multimedialardan foydalanish o'quvchilarga nima beradi?

1. Tarix darslarida multimediali dan foydalanish eski texnologiyalardan foydalanishda mavjud bo'limgan yangi imkoniyatlarni ochib beradi;

2. O'quvchilarni o'quv materialini yaxshiroq tushunishga va eslab qolishga yordam beradi;

3. Interfaol ish tartibi o'quvchiga o'quv tezligiga ta'sir qilishi, materialni o'zlashtirish darajasini tekshirishva darsning o'quvchilar yaxshi tushunmagan qismini takrorlash imkonini beradi.

Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma materiallar sifatida ham beriah mumkin. Slaydlarga o'quvchilar o'z fikrlarini bildirib, ularni har tomonlama tahlil qilishadi. Multimedia axborotlarni turi xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarni yaratish, uni ko'rish hamda eshitish organlari orqali qabul qilish, tasavvur etish imkoniyatlarini hosil qiladi.

Zamonaviy axborot tenologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash quyidagi vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

1. Internet tarmoqlarida keltirilgan turli xil nazariy va amaliy ma'lumotlar bilan ishslash ko'nikmasini shakllantirish hamda o'tilgan mavzularni mustahkamlash;

2. Didaktik-kompyuter dasturlaridan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish;

3. Uslubiy – mavzuni tushuntirish va dars natijalarini tahlik qilishda kompyuter qurilmalaridan faol foydalanish;

4. O'quvchilarda axborot texnologiyalari bilan ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kun ta'lim maskanlarida yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda va bir nechta samarali ishlar amalga oshirilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak salohiyatga ega bo'lgan kadrlar bo'lib yetishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. O'quvchilarni mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida tarix fanining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga oid masalalar bo'yicha nazariy bilimlar bilan qurollantirish maqsadga muvofiq. Nazariy mavzular sifatida ajratilgan nazariy ma'lumotlar yagona uslubiyatga bo'ysundirilgan holda ta'lim oluvchining nazariy bilimlarini oshirishga hamda nutqiy savodxonli bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdurazzoqova D. "Interfaol metodlar: nazariya, amaliyat, tajriba" Pedagoglar

uchun qo'llanma. Toshkent – 2013-yil.

2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., O'zbekiston milliy eksiklopediyasi, Toshkent: 2017-yil.

3. Abduqodirov A., Ishmuhamedov R. “Ta'limda innovatsion texnologiyalar” Toshkent: 2008-yil.

4. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim tizimini yaratishni yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009 –yil.

5. Panjiyev S. Yangi zamon haqiqat tushunchalari. Namangan davlar universitetining ilmiy axborotnomasi. 2019-yil.